


## “TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig‘i



Sh.Abdiev

2023 yil 22 noyabr

### Viloyat statistika boshqarmasining Kengash yig‘ilishi BAYONI № 4

2023 yil 1 noyabr

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi:

-SH.A.Abdiev – Viloyat statistika boshqarmasi  
boshligi

Qatnashdilar:

-Boshqarma boshligining o‘rnbosarlari, bo‘lim  
bosqliqlari, tuman (shahar)lar statistika bo‘limlari  
bosqliqlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

### KUN TARTIBI

1. Kirish so‘zi.
2. Statistika boshqarmasi tizimida 2023 yilning 3-choragida amalga  
oshirilgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida.
3. Boshqarma va uning bo‘limlari tomonidan 3-chorakda erishilgan ijobiy  
natijalar, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar to‘g‘risida.

(*Abdiyev, Sidikov, Salimov, Davronov, tarmoq va tuman-shahar statistika bo‘limi  
bosqliqlari, Abdiyev*)

Kengash yig‘ilishini boshqarma boshligi Sh.Abdiev ochib, ishtirokchilarni  
kun tartibi bilan tanishtirdi.

Shuningdek, “2023 yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” doirasida  
boshqarma va uning hududiy bo‘limlari tomonidan 2023 yilda amalga oshirilgan  
ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning yanvar-sentyabr  
oylarida Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 52  
438,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga o‘sib,  
aholi jon boshiga 12 629,4 ming so‘mni tashkil etdi.

YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibiда qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligining ulushi 39,7 % ni, sanoat tarmog‘i 14,7 % ni, qurilish 6,0 % ni va  
xizmatlar sohasi 39,6 % ni tashkil qildi.

Samarqand viloyatining Respublika yalpi ichki mahsulotining shakllanishida  
qo‘shgan hissasi 7,0 % ga etdi.

YAHM deflyator indeksi 2022 yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 113,4 % ni tashkil qildi.

Viloyatning sanoat korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida 22 916,2 mld. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 105,6 % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʼjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 36 373,6 mld. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 103,0 %) ni, asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 19 258,5 mld. soʻmni (121,2 %), bajarilgan qurilish ishlari hajmi 7 207,8 mld. soʻmni (107,0 %), koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 20 603,7 mld. soʻmni (111,7 %), chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 19 129,3 mld. soʻmni (105,9 %) ni, tashqi savdo aylanmasi 1 981,7 mln. AQSH dollarini (jumladan eksport – 485,2 mln. AQSH dollarini va import – 1 496,5 mln. AQSH dollarini) tashkil etdi.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023 yilning 1 oktyabr holatiga viloyat boʻyicha doimiy aholi soni 4 186,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 67,9 ming kishiga yoki 1,1 % ga koʻpaydi.

Jumladan, shahar aholisi soni 1 535,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,7 %), qishloq aholisi soni 2 650,3 ming kishini (63,3 %) tashkil etdi.

Roʻyxatdan oʻtgan kichik tadbirkorlik subʼektlari soni 2023 yilning 1 oktyabr holatiga 54 781 tani (dehqon va fermer xoʼjaliklarisiz) tashkil etib, ulardan 37 680 tasi yoki 68,8 foizi faoliyat koʻrsatib kelmoqda. 2023 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida 6 236 ta tadbirkorlik subʼektlari tashkil etilgan.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini aks ettiruvchi, dolzarb masalalarda 1 158 ta tahliliy maʼlumotlar, 280 ta oylik va choraklik press-relizlar boshqarmaning rasmiy veb-saytida eʼlon qilinganligini hamda maʼlumotlar infografika, diagramma va videoroliklar koʼrinishida Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatilganligi va mahalliy nashrlarda chop etilganligini aytib oʼtdi.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida, 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida 302 ta buyruq, 9 595 ta chiqish xatlari, 56 ta yigʼilish bayonnomasi va boshqa hujjatlar davlat tili talablariga mos ravishda tayyorlangan hamda ijroga qaratilgan. Devoriy yozuvlar, plakatlar undagi maʼlumotlar hamda boshqarmaning muhr va shtamplari davlat tili talablari asosida oʼzgartirildi. Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha tadbirlar boshqarmaning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilmoqda.

Tadbirkorlik subʼektlari oʼrtasida profilaktika ishlari doirasida viloyatning barcha hududlarida 155 marta seminar va uchrashuvlar oʼtkazilib, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda 1 692 marta chiqishlar qilinib, 9 136 ta buklet va qoʼllanmalar tarqatildi. Natijada, mazkur tadbirlar orqali 1 411 ta holatda yoʼl qoʼyilishi mumkin boʼlgan xato-kamchiliklarning oldi olindi.

“Tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi”ga asosan, 13 ta oʼquv kurslarida 78 nafar xodimlar malakasini oshirdi.

Shundan soʼng, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlari bilan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalar va ularning soʼzsiz bajarilishini taʼminlash borasida statistika idoralari rahbarlarining shaxsiy masʼuliyati eʼtirof etilib, yigʼilish kun tartibidagi masalalar muhokamasiga oʼtildi.

Boshqarma tegishli bo‘limlari tomonidan Urgut, Oqdaryo va Pastdarg‘om tumanlarida o‘tkazilgan o‘rganish natijasida aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan xulosa va takliflar berildi

1. Boshqarmaning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bilan ishslash va ijro intizom nazorat bo‘limi Urgut tumani statistika bo‘limi xodimlariga ijro intizomi, 1-2 jadvallarni to‘ldirish, bayonnomalarni rasmiylashtirish hamda <https://edo.ijro.uz> ni ishlatish bo‘yicha to‘liq tushuncha va kunikmalarini shakillantirish lozim;

2. Kuzatuvlar bo‘yicha papkalarni to‘liq jamlab Boshqarma tegishli bo‘limlariga hujjatlarni to‘liqligini birgalikda ko‘rishlari maqsadga muvofiqdir;

3. Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlari bo‘limi bo‘yicha qilinadigan papkalari, yig‘ma jiddlari hamda oylik, choraklik, yillik tahliliy jadvallari boshqarma tegishli bo‘limi bilan solishtirish kerak.

Kamchiliklar bartaraf etish uchun yuqorida keltirilgan tumanlarga 15 kun muddat berildi va bajarilgan ishlar to‘g‘risida boshqarma tegishli bo‘limlariga hisobot berishlari btlgilandi.

Kengash yig‘ilishi kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

## **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023 yil 1 noyabrdagi 17-sonli Hay‘at yig‘ilishi bayoni tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig‘i Sh.Abdievning boshqarma tizimini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlarida belgilab berilgan vazifalarning davlat statistika organlarida 2023 yilning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlar muhokamasi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari, boshqarma va shahar-tumanlar bo‘lim boshliqlari zimmalariga:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qaror va farmoyishlari bilan davlat statistika sohasi oldiga belgilab berilgan, shuningdek, agentlikning idoraviy hujjatlari bilan ijrosiga bevosita o‘zlari mas’ul etib belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, puxta va samarali ijrosini ta’minalash;

-o‘zlari mutasaddi bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha “2023 yil uchun Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi”da belgilangan statistika ishlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash, bunda yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rish;

-tahliliy statistika ishlari sifatini yanada kuchaytirgan holda, tayyorlanayotgan axborot-tahliliy ma’lumotlar mazmunini kengaytirilishi hamda ularni doimiy ravishda boshqarmaning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi

sahifalariga joylashtirish;

-barcha yo‘nalishlar bo‘yicha joylarda o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlarni to‘liq va sifatli tashkil etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirish hamda kuzatuv natijalari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liqligi, haqqoniyligi va sifatliligi yuzasidan tahlillarni har tomonlama puxta tashkil etish;

-bajarilishiga mas’ul bo‘lgan barcha vazifalar bo‘yicha hududiy statistika bo‘limlari faoliyati monitoringi va nazorati borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish hamda vazifalarni joylarda samarali ijro etilishi yuzasidan ularga doimiy amaliy yordam ko‘rsatish vazifalari yuklansin.

4. Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlari bo‘limi (Davronov):

-2023 yil uchun Statistika dasturiga kiritilgan statistika ishlarini belgilangan muddatlarda, to‘liq va sifatli bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borsin;

-hududiy statistika organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan sohaga oid yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni keng ko‘lamda va samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirib borsin;

-boshqarma hamda hududiy statistika bo‘limlari boshliqlari bilan birgalikda, aniqlangan huquqbazarliklar, xususan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan statistik hisobotlarni taqdim etish borasida yo‘l qo‘yilgan huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy ishlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritilishi, to‘g‘ri rasmiylashtirilishi va o‘z muddatida ijro etilishini ta’minlasin, bu borada nazoratni yanada kuchaytirsin;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo‘limi (Sattarov) bilan birgalikda

-boshqarmaning 2023 yilning 4-choragida hududiy statistika organlarida statistika faoliyatini tashkil etish masalalarini kompleks va maqsadli o‘rganishlar bo‘yicha reja-jadval asosida nazoratga olingan hujjatlar bilan ishlash, ularni belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilishini ta’minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha shahar va tumanlarda o‘rganishlarni tashkil etsinlar;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-sen qarori va “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muntazam monitoring olib borsin va bajarilgan ishlar natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot kiritib borsinlar.

5. Statistik hisobotlarni taqdim etish intizomi va qamrovni ta’minlash maqsadida:

boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari o‘zlariga biriktirilgan tuman (shahar) statistika bo‘limlarini yuridik bo‘lim (vakant), Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlari bo‘limi (Z.Davronov) bilan birgalikda ma’muriy ishlarni o‘z muddatida rasmiylashtirilishini hamda “E-ma’muriy ish” yagona axborot tizimiga kiritilishi nazoratga olinsin;

hisobotlarni taqdim etish tartibini buzilishini oldini olish maqsadida profilaktika ishlarini amalga oshirish, ko‘rsatiladigan konsalting xizmatlari bo‘yicha

sub'ektlar o'rtasida targ'ibot ishlarini jadallashtirish, hisobotlarni taqdim etish tartibini buzgan ma'sabdor shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko'rish bo'yicha sezilarli o'zgarish qilinmasa, intizomiy chora qo'llanilishi yuzasidan ogohlantirilsin.

-maxsus jamg'armaga kelib tushgan mablag'larni tizim organlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda taqsimlashga e'tibor qaratilsin.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash va ijro intizomi nazorati bo'limi (Sattarov)

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldag'i "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" PF-6166-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydag'i "Ijro.gov.uz" ijro intizomi 13 idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-son qarori asosida ish tashkil etilishini ta'minlasin;

-ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy choratadbirlar amalga oshirilishini ta'minlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari va hujjatlari, hukumat qarorlari hamda ularning ijrosi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar va chora-tadbirlarni o'z vaqtida, aniq va to'liq hajmda bajarilishi uchun rahbar va xodimlarning shaxsiy javobgarligini oshirib, bu borada shaxsiy nazoratni yanada kuchaytirsin;

-tuman, shahar statistika bo'limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash masalalari bo'yicha kompleks o'rganishlarni reja asosida, yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etib, o'z vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lgan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy va boshqa ta'sir choralarini ko'rib borsin;

-kelib tushgan hujjatlar bilan ishslash, ijro intizomi monitoringi bo'yicha tartibda belgilangan 1- va 2-jadvallarni to'liq shakllantirish hamda puxta tahlil etgan holda, Statistika agentligiga belgilangan muddatda taqdim etilishida shaxsiy javobgarlikni yanada oshirsin.

7. Dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (Sadirov) tizimdag'i kompyuter va boshqa qurilmalardan xizmat doirasidan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlanganda, tegishli xodimlarga o'rnatilgan tartibda chora ko'riliши yuzasidan ogohlantirilsin.

Markaz tomonidan quyidagilar doimiy ravishda tashkil etilsin va nazoratga olinsin:

Boshqarma va tuman statistika bo'limlarida foydalanilayotgan VPN hamda IP telefon tarmog'ini doimiy ishchi holatida bo'lishini;

- xodimlar tomonidan Internet tarmog'idan samarali foydalanish va axborot xavfsizligi talablarini bajarish, masalalarini shaxsan nazoratga olishni;

- internet tarmog'idan to'g'ri va xavfsiz foydalanish, shaxsiy yozishmalar uchun esa milliy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil qilishni;

- ish joyidagi Internet tarmog‘idan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni qat’iy man qilish va har bir xodimning Internet tarmog‘idagi faoliyatini doimiy monitoringini olib borishni;

- xizmatga doir ma’lumotlarni xorijiy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda almashishini man qilish, milliy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil qilish hamda ushbu maqsadda Internet tarmog‘iga cheklovlar o‘rnatalishini tashkil qilishni;

- antiviruslar bazalarini o‘z vaqtida va doimiy ravishda yangilab borilishini;

#### 8. Kadrlar bo‘limi (Muxamadieva)

- kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutiga malaka oshirishga yuborilayotgan xodimlarni o‘z vaqtida etib borishi, dars jarayonlarida to‘liq va faol ishtirok etishi ustidan alohida nazorat o‘rnatsin va o‘qish yakuni bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalari darajasini o‘rganib borsin;

- malaka oshirishga yuborilayotgan xodimlar yakuniy test jarayonidan etarlicha ball ololmaganda lavozimlarini bir pog‘onaga tushirilishi yuzasidan choralar ko‘rili bo‘yicha ogohlantirilsin.

- vakant bo‘lib turgan bosh yuriskonsult o‘rinini to‘ldirish chorasi ko‘rsin.

9. Boshqarma va hududiy statistika bo‘lim boshliqlari hamda Manaviyat-ma’rifat ishlari samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha javobgar (F.Eshonkulov).

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni va 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor majlisida belgilangan vazifalar shuningdek, Statistika agentligi direktorining 2023 yil 30 yanvardagi 01/1-21-15-1-18- son topshirig‘i ijrosini so‘zsiz ta’minalash choralarini ko‘rsin;

-amalga oshirilayotgan ishlar natijalari yuzasidan Statistika agentligi rahbariyatga muntazam axborot kiritib borsin.

- tizim faoliyatida rasmiy hujatlarni yuritishda davlat tili talab-me’yorlariga muvofiqlikni kamchiliklarsiz ta’minalash, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini o‘z vaqtida bajarish boshqarma va hududiy statistika bo‘limlari rahbarlari va mas’ul xodimlarining asosiy vazifasi ekanligi va bu borada faoliyatda sustkashlikka yo‘l qo‘yan mutasaddilarga qat’iy jazo choralar ko‘rili bo‘rsatib o‘tilsin.

#### 10.Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari (Sidikov va Salimov)ga

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son qarori, 2021 yil 6 iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni va “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5177-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash;

-so‘rovlар, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ‘iboti bo‘yicha chora-tadbirlar natijalari va ta’sirini hamda korrupsiyaga moyil bo‘lgan soha va yo‘nalishlarni kamida bir yilda ikki martadan baholash;

-alohida maqsadli guruhlarning (davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va tizimi haqida huquqiy bilimi va xabardorligini oshirish yuzasidan ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy choratadbirlar (davra suhbat, seminarlar)ni amalga oshirish;

-amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotlarni Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasiga o‘z vaqtida to‘liq taqdim etib borish;

-mansab vakolatini suiiste’mol qilish, korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilishining oldini olish maqsadida, Statistika agentligi tomonidan belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to‘liq va sifatli ta‘minlash bo‘yicha zarur choralarmi amalga oshirib borsin hamda barcha darajadagi tizim xodimlari o‘rtasida har chorakda kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tushuntirish ishlarini o‘tkazish;

-boshqarma tizimi xodimlari o‘z kasbiga nisbatan yuklatilgan vazifa va majburiyatlarini bajarish chog‘ida halollik, xolislik, beg‘arazlik, ochiqlik va adolatlilik tamoyillarida faoliyat yuritishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

Amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi hamda korrupsiya holatini har qanday ko‘rinishiga chek qo‘yish va mas’ul xodimlar korrupsiya vaziyatiga duch kelgan taqdirida Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlariga murojaat qilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

## 11. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo‘limi (Normatova)

Moliyaviy hisobotlarni, moddiy texnik bazalar, debitor va kreditor qarzdorliklar, shuningdek, dasturlar, rejalar, shu jumladan, xodimlarning ish haqqi to‘lovlarini o‘z vaqtida va belgilangan muddatlarda amalga oshirish tartibotlari ijrosini ta‘minlanishini alohida nazoratga olsin.

## 12. Faoliyati davomida:

### *Yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari uchun:*

Sanoat sohasidagi statistik kuzatuvlarni sifat jixatdan past darajada tashkil etilgani, bir necha bor ogohlantirilishiga qaramasdan, statistik kuzatuvlarni tashkil etish jarayonini to‘liq nazoratga olmaganligi natijasida xato va kamchiliklar yuzaga kelganini inobatga olib, boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘ribbosari T. Sidikovga hayfsan intizomiy chorasi qo‘llanilsin.

### *Erishgan ijobiy natijalari uchun:*

-Statistika dasturiga muvofiq, belgilangan ishlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlaganligi va yuqori samaradorlikka erishganligini inobatga olib, Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot tahliliy ishlari bo‘limi boshlig‘i (Z.Davronov), Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi boshlig‘i (I.Raxmatov)

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligi masalalarida, III-chorakdagи faoliyatida yuqori samaradorlikka erishganligi uchun

dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi boshlig' (U.Sadirov) rag'batlantirilsin.

13. Boshqarmaning barcha tarmoq hamda hududiy statistika bo'limlari boshliqlari:

Tadbirkorlik sub'ektlari (tijorat korxonalari) tomonidan statistika hisobotlari ma'lumotlarini buzib ko'rsatish, hisobotlarni taqdim etmagan yoki muddatidan kech taqdim etgan xollarda tadbirkorlik sub'ektlariga hybrid.pochta.uz orqali xat bilan 7 ish kuni muddatida ko'rsatma xati yuborishi (*Ko'rsatma xatida belgilangan muddatida qaytadan hisobotlar to'g'ri taqdim etilganda jarayon yakunlanadi*).

Ko'rsatma xatiga asosan 30 kun ichida hisobotni taqdim etmagan tadbirkorlik sub'ektlariga va davlat statistika hisobotlari ma'lumotlarini buzib ko'rsatgan, hisobotlarni taqdim etmagan yoki muddatidan kech taqdim etgan notijorat korxonalarga 5 ish kunida statistika organiga kelishi va ma'muriy huquqbazarlik bayonnomasini rasmiylashtirish uchun rasmiy chaqiruv xati yuborish.

Chaqiruv xatiga asosan 5 kun ichida tadbirkorlik sub'ektlari hamda notijorat korxonalari rahbarlari bilan bog'lanib statistika organlariga kelishi ogohlantirilib, ularning mas'ul shaxsidan tushuntirish xati va fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi ma'lumot (milliy passport tasdiqlovchi hujjati) nusxasini olishlari.

Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan fuqaroga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 294-moddasida nazarda tutilgan huquq va burchlari bilan tanishtirish, tushuntirish xati yozishdan bosh tortgan yoki tushuntirish xati yozadigan shaxs bo'lmasan taqdirda javobgar kelmaganligi yuzasidan dalolatnomalar tuzish vazifalari yuklansin.

14. Har chorak yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan kengash yig'ilishlarida, ma'muriy jazo choralarini qullash va "E-ma'muriy ish" yagona axborot tizimiga kiritilishida harakatsizlik qilib sustkashlikka yo'l qo'ygan tuman, shahar statistika bo'limlari boshliqlarining faoliyati muhokama qilinib mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralar qo'llanilishi belgilab qo'yilsin

15. Boshqarmaning statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi (Davronov) hamda hududiy statistika bo'limlari boshliqlariga

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021-yil 29 sentyabrdagi 59qq/11-60-21-sonli qishma qarorining 3-ilovasi 194-betida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215-moddasida (Davlat statistik hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish) nazarda tutilgan huquqbazarlik yuzasidan talab etilgan hujjatlarni rasmiylashtirib tegishliligi bo'yicha sud organlariga "E-ma'muriy ish" tizimi orqali va (yoki) rahbariyatga taqdim etish vazifalari yuklansin.

16. Boshqarma yuriskonsulti hamda hududiy statistika bo'limlari boshliqlariga "E-ma'muriy ish" tizimi orqali kiritilgan ma'muriy ishlari Sudlar tomonidan qaytarilganda, Sudyalar bilan bog'lanib va hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etib, qayta sudsiga yuborilishini ta'minlash yuklansin.

17. Statistika agentligi tomonidan hududiy statistika organlarining faoliyati natijadorligi bo'yicha o'tkazilgan baholash bo'yicha boshqarmaning barcha bo'limlari tomonidan baholashda qo'llaniladigan tegishli indikatorlar bo'yicha belgilangan

parametrlarda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik borasida zarur choralari ko'rilsin.

18. Kengash yig'ilishi qarorlari ijrosini nazorat qilishni T.Sidikov va M.Salimov zimmasiga yuklansin.

Kengash mas'ul kotibi

Z.Davronov